

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“FIZIKA VA ELEKTRONIKA”  
kafedrasi**

Ro'yxatga olindi:

Nº 104  
2022 yil “25” 08



**«AKKREDITLASHTIRISH VA MUVOFIQLIKNI BAHOLASH»  
fanining**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300000 – Ishlab chiqarish texnik soha

Ta'lif sohasi: 310000 – Muhandislik ishi

Ta'lif yo'nalishlari: 5310900 – Metrologiya, standartlashtirish  
va mahsulot sifati menejmenti

Fanning ishchi dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: **To‘raev A.T.-** “Fizika va elektronika” kafedrasi o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

**Yusupov R.** – QarMII “Fizika va elektronika” kafedrasi katta o‘qituvchisi.  
**Karimov I.** – O‘zMMI Qashqadaryo filiali metrologiya bo‘limi mutaxassisini

Fanning ishchi dasturi “Fizika va elektronika” kafedrasining 2022 yil 26  
08 dagi 1-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va “Elektronika  
va avtomatika” fakulteti Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**

Fanning ishchi dasturi “Elektronika va avtomatika” fakulteti Uslubiy  
Komissiyasida (bayon № 1, 27.08 2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida  
(bayon № 11, 28.08 2022 y.) muhokama etilgan va o‘quv jarayonida  
foydalanshiga tavsiya qilingan.

O‘quv- uslubiy bo‘lim boshlig‘i

**PhD. Sh.Turdiyev**  
(f. i.sh.)

Elektronika va avtomatika  
fakulteti Uslubiy kengashi raisi:

**PhD. F.Jo‘ravev**  
(f. i.sh.)

“Fizika va elektronika”  
kafedrasi mudiri

**dot. M.Aliqulov**  
(f. i.sh.)

## **Fanning oliy ta'limgangi o'rni hamda maqsadi va vazifalari.**

Oliy ta'limgangi Davlat ta'limgangi standartiga ko'ra 5310900 – “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menedjmenti (sanoat)” yo'nalihsida o'qitiladigan “Akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash” fani dasturi iqtisodiyotda mahsulot, xizmatlar, menejment tizimlari va xodimlarni muvofiqligini baholash idoralarni akkreditlashtirish, ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf qilish, respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalarini va muvofiqlikni baholash sohasida xalqaro muammolar va me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanish masalalarini qamraydi.

“Akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash” fanning ahamiyati xalqaro savdo tizimiga O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ingeratsiyalashuvi bilan aloqador akkreditlashtirish, sertifikatlashtirish va muvofiqlikni baholash bo'yicha metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifat menejmenti yo'nalihi bo'yicha bakalavrлarni tayyorlash sohasidagi vazifalarni qamrab olgan.

**Fani o'qitishdan maqsad** – talabalarda mahsulot va xizmatlar, menejmenti tizimlarini hamda xodimlarning muvofiqligini baholash jarayonlarida qo'llaniladigan turli usullar, muvofiqlikni baholash idoralarni akkreditlashtirish tartiblari, akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash natijalarini rasmiylashtirish hamda muayyan sharoitlarga mos holda akkreditlashtirishni tashkillashtirish bo'yicha yo'nalihs xususiyatiga mos nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – talabalarga mahsulotlar, xizmatlar raqobatbardoshligini aniqlash va muvofiqligini rasman tasdiqlash borasida qonunchilik asoslari, ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlarni, shuningdek, xodimlarning muvofiqligini baholash bo'yicha ishlarni o'tkazish usullari va vositalarining nazariy jihatlari hamda ma'lum sanoat mahsulotlari va iqtisodiyotdagи ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun ularni me'yoriy hujjatlarda o'matilgan talablar bo'yicha muvofiqligini baholashni o'rgatishdan iborat.

Ushbu fan talabalarga akkreditlashtirish faoliyatiga asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar, muvofiqlikni baholash hamda natijalarini rasmiylashtirish, sanoanti rivojlangan mamlakatlarning akkreditlashtirish bo'yicha milliy idoralari to'g'risida bilimlarni shakllantiradi.

### **Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar.**

“Akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– muvofiqlikni baholash, muvofiqlikni baholash ob'ektlari, muvofiqlikni baholash faoliyatlarini to'g'risida; akkreditlashtirish bo'yicha xalqaro, hududiy va milliy tashkilotlarning faoliyatlarini va tuzilmasi to'g'risida; mahsulot va xizmatlar, xodimlarning muvofiqligini kafolatlovchi meyoriy texnikaviy va qonuniy hujjatlar haqida, savdodagi texnik to'siqlar va mahsulotlarning eksport va import jarayonlari **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;

– O'zbekiston Respublikasi akkreditlashtirish milliy tizimi; akkreditlashtirish milliy tizimi va muvofiqlikni baholash tizimlarining maqsad va vazifalarini; muvofiqlikni baholash va akkreditlashtirish tartiblari, muvofiqlikni baholash idoralarning huquq va burchlari hamda vaziflari, sinov laboratoriyalari va markazlarini; mahsulot, xizmat, jarayon, tizim va xodimlarni muvofiqligini tasdiqlashda akkreditlashtirish, sertifikatlashtirish, muvofiqlikni deklaratsiyalash, inspeksiya nazorati, yukni yuklashdan oldin va tushirishdan oldin inspeksiya tartiblarini; akkreditlangan obektlar ustidan inspeksion nazoratni o'tkazish va aniq sharoitlar uchun akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholashni aniqlash va usullarni tanlash; muvofiqlik tasdiqlash natijalarini rasmiylashtirishni; xalqaro, hududiy akkreditlashtirish faoliyatlarini va ular bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy va ilmiy-texnik hujjatlarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

– mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar, muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislar va muvofiqlikni baholash organlari inspeksiya nazoratidan o'tkazilishi uchun texnik-iqtisodiy asoslangan holda akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholashni to'g'ri tashkillashtirish; muvofiqlikni baholash ob'ektlarining faoliyatini to'g'ri baholash va tahlil qilish; Muvofiglikni baholashning asosiy vazifalari bajarish va Muvofiglikni baholashning asosiy prinsiplarini amaliyotda to'g'ri qo'llash **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

## Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni.

Ishlab chiqarishda va sanoatda inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash, mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun muvofiqlikni baholash organlari akkreditatsiyaning belgilangan sohasida ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlash, ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdoda ishtirok etish, savdodagi texnik to'siglarni bartaraf etish masalalarini yoritib beradi. Shu sababli ushu fan asosiy mutaxassis fani hisoblanib, ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas bo'g'ini bo'lib hisoblanadi.

### Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitishning zamonaviy texnik vositalari keng qo'llanilishi darkor:

- talabalarning "Akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash" fanini o'zlashtirishida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalinish;
- yangi informatsion texnologiyalar va takomillashgan o'quv uslubiy qo'llanmalardan foydalinish;
- ma'ruza matni, tarqatma materiallar, elektron materiallar hamda texnologik sxemalar maketlaridan keng foydalanilish;
- mustaqil ta'linda talabalar ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan misol va masalalar yechish, ishbilarmonlik o'yinlarini tashkil etish;
- talabalar bilimini holisona baholash usul va vositalari, test topshiriqlarini qo'llash va ularning samaradorligini dasturli nazorat asosida ta'minlashdan iborat bo'ladi.

## 2 ASOSIY QISM

### 2.1. "Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarning kalendar tematik rejasi

Nº	Mavzular nomi	Ma'ruza	Amaliyat	Mustaqil ta'lif	Barcha soatlar
1.	Fanga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash soxasidagi asosiy tushunchalar	2	2	2	6
2.	Muvofiqlikni baholashning qonuniy asoslari. "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunning umumiy qoidalar va maqsadi	2	2	2	6
3.	Muvofiqlikni baholash sohasidagi me'yoriy hujjatlar	2	2	4	8
4.	Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari va prinsiplari	2	2	2	6
5.	Muvofiqlikni baholash ob'ektlari	2	2	4	8
6.	Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish	2	2	2	6
7.	Muvofiqlikni deklaratsiyalash	2	-	4	6
8.	Inspeksion nazorat va uni amalga oshirish	2	-	2	4
9.	Muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish	2	-	4	6
10.	Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish	2	-	2	4

11	Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar	2	-	4	6
12	Milliy akkreditlashtirish organlari	4	-	2	6
13	Akkreditatsiya shartlari.akkreditatsiya sohasini o'zgartirish	2	-	4	6
14	Muvofiqlikni baholash modellari va ularni sertifikatlashtirishda qo'llanilishi	4	-	2	6
15	Muvofiqlikni baholash ishlarini moliyalashtirish	2	-	4	6
16	Xorijiy mamlakatlarda muvofiqlikni baholash va sertifikatlashtirish tizimlari	2	-	2	4
<b>JAMI:</b>		<b>36</b>	<b>12</b>	<b>46</b>	<b>94</b>

## 2. Mavzularning qisqacha mazmuni

### 2.1. Ma'ruba mazmuni.

1-mavzu. Fanga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. Akkreditatsiya va muvofiq-likni baholash soxasidagi asosiy tushunchalar

2-mavzu. Muvofiqlikni baholashning qonuniy asoslari. "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunning umumiy qoidalar va maqsadi

3-mavzu. Muvofiqlikni baholash soxasidagi me'yoriy hujjatlar

4-mavzu. Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari va prinsiplari

5-mavzu. Muvofiqlikni baholash ob'ektlari

6-mavzu. Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish.

7-mavzu. Muvofiqlikni deklaratsiyalash

8-mavzu. Inspeksion nazorat va uni amalga oshirish

9-mavzu. Muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish

10-mavzu. Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish

11-mavzu. Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar

12-mavzu. Milliy akkreditlashtirish organlari

13-mavzu. Akkreditatsiya shartlari.akkreditatsiya sohasini o'zgartirish

14-mavzu. Muvofiqlikni baholash modellari va ularni

sertifikatlashtirishda qo'llanilishi

15-mavzu. Muvofiqlikni baholash ishlarini moliyalashtirish

16-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda muvofiqlikni baholash va sertifikatlashtirish tizimlari

### 2.2. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Nº	Mavzular nomi	soat
1.	Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash soxasidagi asosiy tushunchalar	2
2.	Muvofiqlikni baholashning qonuniy asoslari. "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunning umumiy qoidalar va maqsadi	2
3.	Muvofiqlikni baholash soxasidagi me'yoriy hujjatlar	2
4.	Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari va prinsiplari	2
5.	Muvofiqlikni baholash ob'ektlari	2
6.	Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish	2
<b>JAMI:</b>		<b>12</b>

### Amaliy mashg'ulotlar mavzularning qisqacha mazmuni.

1-amaliy mashg'ulot. Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash soxasidagi asosiy a'tama va tariflar.

2-amaliy mashg'ulot. Muvofiqlikni baholashning qonuniy asoslari. "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi

qonunning umumiyl qoidalar va maqsadi

3-amaliy mashg'ulot. Muvofiqlikni baholash sohasidagi me'yoriy hujjatlar

4-amaliy mashg'ulot. Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari va prinsiplari.

5-amaliy mashg'ulot. Muvofiqlikni baholash ob'ektlari.

6-amaliy mashg'ulot. Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish

### **2.3. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Ushbu fandan o'quv yuklamasida laboratoriya mashg'ulotlari uchun soatlar ajratilmagan.

### **2.4. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.**

"Akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash" bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarining ma'rurasini tinglaydilar, topshirqlarni bajaradi va misollar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qildi, uy vazifa sifatida berilgan topshirqlarni bajaradi va misollar yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalarini reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalananib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalaniib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilalar talabalarning darsda olgan bilimlarini chugurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalgaga oshiriladi.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari.**

Mustaqil ishlarning mavzulari: O'zbekistonda akkreditlashtirish faoliyati va tashkiliy tuzimasi; Akkreditlashtirishning qonuniy va huquqiy asoslari; Akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash usullari va turlari; Muvofiqlikni baholash va akkreditlashtirish faoliyatlarining huquqiy asoslari; Akkreditlashtirish va akkreditlashtirish tizimlari; Akkreditlashtirishning iqtisodiy samaradorligi; Xorijiy mamlakatlarda akkreditlashtirish va muvofiqlikni baholash faoliyatları; Xorijiy davlatlarda muvofiqlikni baholash tajribalari va amaliyoti; Savdodagi texnikaviy to'siqlarni bartaraf qilish va baholash natijalarini o'zaro tan olinishi mexanizmlari; Xalqaro va mintaqaviy doirada akkreditlashtirish amaliyoti va tashkilotlar.

ISO/IEC 17011 - Muvofiqlikni baholash. Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qiluvchi organlarga qo'yiladigan talablar.

ISO/IEC 17065 - Muvofiqlikni baholash. Mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarni sertifikatlashtiruvchi organlarga doir talablar.

ISO/IEC 17025 - Sinov va kalibrash labolarotiyalari kompetentligiga umumiyl talablar.

ISO/IEC 17021 va ISO/IEC 17024 xalqaro standart talablar.

### **2.5. O'zlashtirish nazorati shakllari**

Ushbu fan bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi malumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga elon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat talim standartlariga muvofiqligini taminlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning hususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, suhbат, hisobot ishi, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha

mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oralig nazorat bir semestrda ikki marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki va h.k.) o‘quv faniga ajratilgan umumiyoq soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “yozma ish” shaklida o‘tkaziladi.

**ON** o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Oliy talim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaN ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YaN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YaN qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darjasini ballar orqali ifodalanadi.

“Elektr o‘lchash usullari va asboblari” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 5 ballik tizimda baholanadi. 5 ballik tizimda baholash quydagicha taqsimlanadi:

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>Talabalarning bilim darajasi</b>
5	A’lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish
4	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo‘lish.
3	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
2	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik.

• **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YaN** semestring oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

• **ON** nazoratlarda kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘ngi oralig nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

• Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari elon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) azodan kam bo‘limgan tarkibda apelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

• Apelyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

• Baholashning o‘rnatalgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **Yakuniy nazoratda “Yozma ish” larni baholash mezoni**

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 2 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lishi kerak.

### **3.1 Asosiy adabiyotlar**

1. G.K.Vijayaraghavan., R.Rajappan., Engineering Metrology and Measurements., For 5th Semester Mechanical and Automobile Engineering ( As per the Latest Anna University Syllabus – Reg.,2008.
2. Ammar Grous. Applied Metrology for Manufacturing Engineering. Great Britain and the United States by ISTE Ltd. 2011, 670 page.
3. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. "Lisson-press", Toshkent, 2014. -423b.
4. Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С. и др. Основы стандартизации, метрологии, сертификации и управление качеством. – Т.: НИИСМС 2007. - 555 с.
5. Ismatullayev P.R., Kodirova Sh.A. Metrologiya asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti 2012. -304 bet.

### **3.2 Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. –Т.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. – Т.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 48 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Т.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - Т.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
5. Абдувалиев А.А., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Мирагзамов М.М., Сабиров М.З. Основы стандартизации, сертификатции и управления качеством. Учебноэ пособиэ, Ташкент. Из-во «Фан ва технология» 2005. -с-535.
6. Сергеев А.Г. Латышев М.В. Сертификация. Учебноэ пособиэ. Москва «Логос», 2000. – 248 с.
7. Крылова Г.Д. Основы стандартизации, сертификатции, метрологии: Учебник для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – 711 с
8. Никифоров И.К. Основы сертификатции: Учебноэ пособиэ. - Улан-Уде: Изд-во ВСГТУ, 2003. - 76 с.
9. Олефирова А.П. Сертификация услуг: Учебноэ пособиэ. – Улан-Уде. Изд-во ВСГТУ, 2005. – 140 с.
- 10.Белых Т.А. Сертификация систем управления качеством. Учебноэ пособиэ в 2 частях. Част 2. Аккредитация и качество сертификатции. Учебноэ электронноэ текстовоэ изданиэ Екатеринбург, ГОУ ВПО «Уральский государственный технический университет – УПИ», 2006. – 56 с.
- 11.Серегин М.Ю. Организация и технология испытаний: в 2 ч. Ч. 1: Методы и приборы испытаний: учебноэ пособиэ / М.Ю. Серегин. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2006. – 84 с.
- 12.Серегин М.Ю. Организация и технология испытаний: в 2 ч. Ч. 2: Автоматизация испытаний: учебноэ пособиэ / М.Ю. Серегин. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2006. – 96 с.

#### ***Qonun va qonun osti hujjatlari:***

- 13.O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonuni.
- 14.O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi Qonuni.
- 15.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24-apreldagi "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №349 –sonli qarori.

### **3.3 Elektron resurslar**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. [www.standart.uz](http://www.standart.uz) – "O'zstandart" agenligi
3. [www.akkred.uz](http://www.akkred.uz) - "Akkreditatsiya markazi" davlat unitar korxonasi veb sayti
4. [www.smsiti.uz](http://www.smsiti.uz) - Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot instituti
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Ta'lim portalı